



Yulduz XUSANBAYEVA,
Farmatsevtika talim va tadqiqot instituti katta o'qituvchisi
Go'zal XOSHIMOVA,
Farmatsevtika talim va tadqiqot instituti katta o'qituvchisi
E-mail: husanbayevayulduz@gmail.com

Tarix fanlari bo'yisha falsafa doktori N. Juraboyev taqrizi asosida

THE IMPORTANCE OF THE SCIENTIFIC AND SPIRITUAL HERITAGE OF THE JADIDS IN THE EDUCATION OF THE YOUNGER GENERATION

Annotation

This article analyzes the spiritual heritage left by many representatives of the Jadid movement, which emerged and developed in the Turkestan region in the late 19th and early 20th centuries. The spiritual heritage of the Jadids is still relevant today and plays an important role in the education of the younger generation.

Key words: Jadidism, scientific and spiritual heritage, enlightenment, textbook, Mahmudkhodja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidkhanov, Abdurauf Fitrat, New Uzbekistan.

ЗНАЧЕНИЕ НАУЧНОГО И ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ ДЖАДИДОВ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ

Аннотация

В статье анализируется духовное наследие, оставленное многими представителями джадидского движения, возникшего и развивавшегося в Туркестанском крае в конце XIX — начале XX вв. Духовное наследие джадидов актуально и сегодня и играет важную роль в воспитании молодого поколения.

Ключевые слова: Джадидизм, научное и духовное наследие, просветительство, учебник, Махмудходжа Бехбудий, Мунавваркори Абдурашидханов, Абдурауф Фитрат, Новый Узбекистан.

JADIDLAR ILMIY-MA'NAVYI MEROSINING YOSH AVLOD TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida yuzaga kelib, rivojlangan jadidchilik harakatining juda ko'plab namoyandalari tomonidan qoldirilgan ma'naviy meros tahlil qilingan. Jadidlarning ma'naviy merosi bugungi kunda ham dolzarb bo'lib, yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, ilmiy-ma'naviy meros, ma'rifat, darslik, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Yangi O'zbekiston.

Kirish. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash, uni chuqur o'rganish va shu asosida ajdodlarimiz meroslariga sodiq, barkamol insonni tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Aynan mustaqillik tufayli bizning ma'naviy qadriyatlarimiz, ajdodlarimiz qoldirgan merosimiz o'zining butun mukammalligida, qaychilanasdan, o'zgartirilmasdan, ya'ni zo'raki qoliplarga joylashtirilmasdan tiklana boshlandi. "Tarix xotirasi, xalqining, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash, milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi". Buyuk ajdodlarimizning merosi tarixiy xotiramizni jonlantirib, axloqiy tarbiyada ma'naviyatimiz va madaniyatimizda ibrat manbai sifatida namoyon bo'lmoqda.

Turkistonda XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi islohotchilik harakati murakkab, ko'p qirrali rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Jadidlar boshqa davlatlarning taraqqiyotiga erishish va islohotlar bo'yicha to'plangan tajribalariga tayanib bu amaliyotni o'lkaga tatbiq etishga harakat qilishdi. Bu jarayon osonlik bilan kechmadi, binobarin ijtimoiy taraqqiyotga erishish ziddiyatlar manbaiga aylantirgan edi. Mustaqillik uchun kurashning bosh g'oyasi ana shunday murakkab sharoitda shakllandi. Mustabid davrida ham jadid namoyondalari xalqni taraqqiyotga undadi. Maktablar, kutubxonalar barpo qilishdi, teatr san'at turini rivojlantirishdi, o'zbek roman navislarini yetishtirib chikardi. O'z navbatida M.Behbudiy xalqning ma'naviy va madaniy saviyasini ko'tarmoq uchun, millatimizni boshqa millatlardan orqada qolmasligi uchun har bir kishi Yevropa davlatlariga borib ma'lum bir tilni o'rganish kerakligini ta'kidlaydi. "Arabiyni bilmasak din,

ruscha bilmasak dunyo qo'ldan ketadi. Turkiy va forsiyning kerakligiga so'z yo'qdir. Yana bir til borki butun olam bir-biri bilan shu tilda so'zlashadur. Ul Fransa xati ila tilidur. Bizga lozimki o'z nafimiz uchun ruscha bilaylik. Xukumat maktablarida o'qiylik, davlat mansablariga kiraylik. Musulmon bo'lib turib taraqqiy qilaylik." Behbudiy va boshqa shu kabi jadidlar faoliyati va ularning asarlari xalq orasida keng tarqaldi, gazeta va jurnallar paydo bo'ldi, kitob va darsliklarni chop qilish keng tus oldi, milliy o'tmish, ma'naviy meros va boshqa xalqlar madaniyati, talim-tarbiya usullarini o'rganishga bo'lgan qiziqish kuchaydi. Shubhasiz, bularning hammasi insonlarda milliy intellektual tafakkurning shakllanishi, siyosiy va ma'naviy uyg'onish, mustaqil taraqqiyotga intilishga olib keldi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Jadidchilik faqat ma'rifatparvarlik yoki maorifni isloh qilishdangina iborat emas, balki u o'zida jamiyat va ijtimoiy turmushning hamma jabhalarini qamrab olgan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy, g'oyaviy-mafkuraviy harakat bo'lganligini nazarda tutish o'rinli bo'lardi. Ayni shu masalada, buyuk vatandoshimiz A.Fitrat va M.Behbudiy fikrlariga e'tibor bering: "Yurtim, Turonim! Sendan ayrilmoq – mening o'limim. Sening uchun o'lmoq – mening tirikligimdir... Men sening uchun tirildim, sening uchun yasharman, sening uchun o'lurman. Ey turklikning muqaddas o'chog'i! O'lim sening o'limingni istaganlarga, nafrat seni ko'mgani kelganlarga"; "Biz o'z qismatimizni bilamiz... agar bizning hayotimiz hurriyat va xalqning baxt-saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo'lsa, biz o'limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz...". Turkiston jadidlarining yetakchisi, mufti Mahmudxo'ja Behbudiy jaholatni keltirib chiqaradigan illatlarni

tahlil qilar ekan, - “Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lar” - degan xulosaga keladi.

Turkistonda XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi islohotchilik harakati murakkab, ko'p qirrali rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Jadidlar boshqa davlatlarning taraqqiyotiga erishish va islohotlar bo'yicha to'plangan tajribalariga tayanib bu amaliyotni o'lkaga tatbiq etishga harakat qilishdi. Bu jarayon osonlik bilan kechmadi, binobarin ijtimoiy taraqqiyotga erishish ziddiyatlar manbaiga aylantirgan edi. Mustaqillik uchun kurashning bosh g'oyasi ana shunday murakkab sharoitda shakllandi.

Bugungi kunda yurtimiz keng qamrovli, turli xil o'zgarishlarga boy, tarixiy va yaratuvchanlik davrini boshidan kechirmoqda. Mazkur davr iqtisodiy munosabatlar tizimiga, keng jabhali iqtisodiyotga asoslangan, mustaqil milliy iqtisodiyotni barpo etish davri deb haqqoniy baholanmoqda. Bozor munosabatlarini takomillashtirish zaruriyati tamomila yangicha iqtisodiy fikrlashni shakllantirishni g'oyat dolzarb vazifaga aylantirib qo'ydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerakligi haqida alohida to'xtalib o'tdi. “Biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi”. Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g'oyat og'ir sharoitda ilm-ma'rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g'oyalari dadi ko'tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o'rganishimiz lozim. Ularning ulug' maqsadlar yo'lidagi mardona kurashi va fidoyiligi Yangi O'zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo'lib xizmat qilishi zarur”, degan edi davlatimiz rahbari. Yangi tarzda iqtisodiy tafakkurni shakllantirishda o'zbek xalqiga o'rganish uchun arzigulik ilmiy asoslar mavjud. Jumladan, jadidlarning ilmiy-ma'naviy merosidan milliy istiqlolni mustahkamlash, iqtisodiyotimizni ravnaq toptirish, xalqimizning yangi jamiyat qurish yo'lidagi vazifalarni amalga oshirishda dasturulamali sifatida foydalanish mumkin.

Muhtaram yurtboshimiz bugungi kunda davlatimiz oldida turgan asosiy vazifa Uchinchi Renessans - Yangi O'zbekistonni birgalikda barpo qilish, yangi O'zbekiston yoshlari dunyo hamjamiyati bilan bimalol raqobatlasha oladigan bo'lishi kerakligini bob-bot ta'kidlab keladilar. Shuningdek, jadidlar ilmiy-ma'naviy merosini chuqur o'rganish bugungi kun yosh avlodni vatanga muhabbat, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, hozirda butun dunyoda turli xil, siyosiy, diniy-radikal ta'sirlarning yoshlar ongiga to'g'ridan-to'g'ri ta'siri tobora ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi tobora mustahkamlanib borayotgan hozirgi davrda - milliy istiqlol uchun kurashgan, qatag'on yillarida nohaq qurbon bo'lgan ziyolilarning boy ilmiy-ijtimoiy merosini chuqur o'rganish, jumladan, jadid mutafakkirlarning davlat-huquqiy qarashlarini tadqiq etish, bu boradagi qimmatli g'oyalarni xalqimizga yetkazish nihoyatda dolzarb deb o'ylaymiz. Jadidlar harakatiga har qaysi davrda turlicha munosabat bildirilgan. Professor A.Azizxo'jayev mash'um mustabid tuzumning illatlarini o'zining “Davlatchilik va ma'naviyat” nomli asarida shunday haqqoniy ifodalagandi: “Ba'zi hamyurtlarimiz buyuk o'g'lonlarimiz Cho'lpon, Fitrat, Behbudiy, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy va boshqalarni qoralash natijasida ko'plab yuqori mansablariga erishdilar. Ular millatparvar, milliy iftixorga ega bo'lgan kishilarning nomlarini qanchalik ko'p sotsalar, ularni sobiy tuzum shunchalik yuqori lavozimga ko'tarar edi. Qizig'i shundaki, keyinroq ularning o'zlari ham o'zlaridan ustaroq sotqinlar tomonidan chaquvga olinib, yo'q qilib yuborildi”.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy-komparativistik tahlil qilingan. Huquqshunos olim Z.Isomov to'g'ri ta'kidlaganidek, “davlat va huquq muttasil rivoj topib boradi. Jamiyat

taraqqiyotining har bir muhim bosqichi ular rivojining yangi pog'onasidir”. Shu ma'noda, jadidlarning davlat-huquqiy g'oyalarni umumlashtirish, bitta tizimga keltirish, o'rganish, ularning bu boradagi qarashlarini tahlil va tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Qatag'on davrining nohaq qurbonlari - Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Fayzulla Xo'jayev, Abdulhamid Cho'lpon va boshqa jadid ziyolilarimizning falsafiy-huquqiy ta'limotlarini o'rganish va tadqiq qilish - davr talabi. Zero, ularning bu boradagi qimmatli meroslarini o'rganish, tadqiq targ'ib qilish, rivojlantirish, yoshlar ongiga singdirish katta ilmiy-nazariy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Respublikamizda bugun yoshlar ta'lim va tarbiyasi davlat siyosatining dolzarb masalalaridan biriga aylanganligi hech kimga sir emas. Sababki, O'zbekiston Respublikasi aholisining oltin foizidan ko'prog'ini yoshlar tashkil etadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha ijobiy o'zgarishlar zaminida har tomonlama barkamol - jismonan sog'lom, aqlan yetuk, nafaqat ko'plab bilimlarni, hozirgi davrda talab katta bo'lgan kasb-hunarlarni egallagan, ayni paytda, mustaqil va ijodiy fikrlashga qodir, intellektual salohiyati yuksak yosh avlod to'g'risida g'amxo'rlik qilishdek ustuvor maqsad mujassam ekanligi tabiiydir. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, oldimizda turgan eng ezgu maqsadlarimiz-mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham, O'zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o'rin egallashi ham - ularning barcha-barchasi, avvalambor, yangi avlod, unib-o'sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo'lib voyaga yetishiga bog'liqdir.

Insonning insonligi, birinchi navbatda, uning ma'naviy axloqiy jihatdan barkamolligi, pokligi bilan belgilanadi. Ma'naviy-axloqiy inson otla-onasi, farzandlari, qarindoshlari, xullas, butun oila a'zolari, qo'ni-qo'shnilari, mahalla-kuyi, qishloqdoshlari va butun mamlakat, xalq farovonligi haqida qayg'uradi. Umuman olganda, O'zbekistonda jamiyatni tubdan yangi demokratik asoslarda qurish va uni har tomonlama rivojlantirish xalqning dunyoqarashi, ma'naviyati bilan bevosita bog'liqdir.

Respublikamiz Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning yurtimizda ta'lim sohasini tubdan isloh qilish bilan bog'liq holda aytgan quyidagi gaplari fikrimiz dalilidir: “Ta'limning maqsadi voyaga yetmaganlarni mahalla-ko'nyoning ko'z oldida saqlash, yurish-turishi, kiyinishi, o'zini tutishini nazorat qilish yoki yoshlar o'rtasida o'z joniga qasd qilish, erta tug'ruq, turli oqimlarga qo'shilib qolish kabi vajlar bilan ularni “doimiy infantil yosh bola” statusida saqlab qolish emas. Ta'lim tizimining maqsadi sipo, oq ko'ylak, qora shim kiygan olomonni yetishtirish ham emas.

Ta'lim tizimining bosh maqsadi mustaqil fikrlaydigan avlodni shiddat bilan o'zgarayotgan global dunyoda yashab ketishga tayyorlash, ularni boshqa mamlakatdagi tengqurlariga nisbatan raqobatbardosh qilish va shu orqali millatning ravnaqini ta'minlashdir. Yoshlari kasbsiz, mahorat va malakasiz, mustaqil fikrlamaydigan, o'rganishni o'rganmagan millatlar zaiflashib, boshqa millatlarga yem bo'lishini tarix ming bir marta isbotlab bergan... Shunday ekan hozir bizga ta'limning yangi islohoti kerak.

Tahlil va natijalar. Yurtboshimiz rahbarligida “Yoshlarga oid davlat siyosati” ning qabul qilinganligi, unda asosiy masalardan biri sifatida yoshlarning ta'lim olishiga alohida o'rin ajratilganligi, yoshlar ma'naviy olamini boyitish maqsadida “Kitobxonlik madaniyatini oshirish” to'g'risidagi qarorning qabul qilinishi hamda qaror ijrosi sifatida respublika miqyosida kitobxonlar bellashuvining o'tkazilishi, g'oliblarga qimmatbaho sovg'alarning taqdim etilishi ham fikrimizni dalillaydi. Bugun rivojlanayotgan davlatimizga jahon mamlakatlari mutaxassislari bilan bimalol raqobatlasha oladigan intellektual salohiyat egasi bo'lgan ijodiy fikrlovchi, ma'naviyati yuksak shaxslar zarurdir. Zero, ma'naviyati yuksak shaxs har xil oqimlarga qo'shilmaydi, aniqrog'i, jaholat ta'siriga berilmaydi.

Ma'rifat inson ma'naviyatining cho'qqisi bo'lsa, jaholat uning aksi inson zotining zavoli, kushandasidir. “Men o'zimdagi barcha yaxshi fazilatlar uchun kitobdan minnatdorman», degan edi XX asrda yashab o'tgan ulug'lardan biri. Kitob - insoniyat

ijodiyotining chinakam hayratlanarli va e'tiborga loyiq belgisi, insoniyat yaratmishlari ichra takrorlanmas mo'jizadir. Kitoblar qatida kechmish zamonlarning aql-idroki yashaydi, xoki tuproqlari tush misol qachonlardir to'zg'ib ketgan odamlarning ovozi burro va aniq yangrab turadi. Insoniyat tomonidan yaratilgan turfa narsa-buyumlarning, tafakkurda qayta-qayta o'ylab ko'rilgan fikrlarning va u erishgan jamiki yuksakliklarning, hattoki, insoniyat olamining ma'naviy yetukligi-yu tanazzuli ham, tabiat bergan ne'matlardan bahramandligi-yu isrofgarchiligi ham – barcha-barchasi xuddi sehrli sandiqday kitoblar sahifasida saqlanib qolgan. Tarix zarvaraqlariga yuz tutsak, odamzod tomonidan yaratilgan misli ko'rilmagan ixtirolar bisyorligiga; ulug' yaratmish o'zining yaratish, yashnatish, bunyod etish va, asosiysi, yuksak tafakkur imkoniyatlarini faqat va faqat insongagina tuhfa etganligiga amin bo'lamiz. Qalamning yaratilishi, kosmik kemalarning yasalishi va osmon toqiga qadam qo'yilishi (Inson qadam qo'ydi samo toqiga (G'.G'ulom), hisoblash texnikalari, kompyuter texnologiyalari, atom energiyasi (Atomni bunyod etib hayron o'zing, hayron o'zing (E.Vohidov), eh he, bur ro'yxatni uzoq davom ettirish mumkin. To'g'ri, mazkur mo'jizalarning birortasini inkor etib bo'lmaydi, aksincha, bularning hamma-hammasi inson oliy tafakkurining mahsuli ekanligiga hayrat ko'zlari bilan qayta-qayta nazar tashlaymiz va tan beramiz. Ammo inson qo'li, tafakkuri, aql-u zakovati bilan

bunyod etilgan jamiki ixtirolar, kashfiyotlar ichida ehg yuksagi, oily maqomga ega bo'lgani, insoniyat hayotida yo'lchi yulduz, so'nmas mayoq, yaxshi-yomon kunlarida hammadam bo'ladigani, mo'jizalar mo'jizasi kitobdir. Vatanimiz tarixiga nazar tashlasak, uzoq o'tmishdan tortib hozirgi kungacha o'tgan o'zbek xalqining haqiqiy mardlik, qahramonlik namunalarini ko'rsatganlarni ko'rishimiz mumkin. Bu mardlik, bu qahramonliklar, donish-u donishmandliklar zamirida ona-xalqimizning asrlar davomida ma'rifatga intilishi va buning natijasida yuksak milliy ma'naviyat sohibiga aylanganligi yaqqol namoyon bo'laveradi. Yuqorida zikr qilingan barcha fikr va mulohazalardan shularni xulosa qilishimiz mumkinki, ma'naviy-axloqiy negizlar mustaqil O'zbekistonimizni rivojlantirishda asosiy omillardandir.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, Turkistondagi ma'rifatparvarlik harakati hisoblangan jadidchilik XX asr boshlarida siyosiy oqim sifatida paydo bo'ldi va o'z zimmasiga yuklangan tarixiy vazifani ado etdi: erk, istiqloq uchun kurashdi, mustabidlikni qoloq feodal tartiblarni qoraladi, xalqni tinch va farovon hayot sari yetaklashga harakat qildi. Jadidchilikning mohiyati siyosiy iqtisodiy, madaniy hayotda – jamiyatning barcha sohalarida islohotlar o'tkazib, zamonaviy, taraqqiy topgan turmush darajasiga erishish edi. Ular o'zlari tashkil etgan matbuotida, adabiyotida, san'atida g'oyalarini xalq orasiga yoyishga urindilar.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M.. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi. – Toshkent. 2020-yil 29 dekabr.
2. Mirziyoyev Sh.M.. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi. – Toshkent. 2022-yil 20 dekabr.
3. Abdurauf F. Tanlangan asarlar. V jild. – T.: "Ma'naviyat", 2010. – B. 36.
4. Cho'lpon. Tanlangan asarlar. – T.: "Ma'naviyat", 2010. – B. 84.
5. Behbudiy M. Tarix va jug'rofiya. // Oyina. 1914. 27-son. –502-505-b.
6. Behbudiy M. Ikki emas, to'rt til lozim. Tanlangan asarlar. - T.: Ma'naviyat, 2006. – B.153.
7. Avloniy A. Tanlangan asarlar. – T.: "Ma'naviyat", 2007. – B. 36.